UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

CHORIYEVA IQLIMA YO‘LDOSH QIZI

OMIXTA O‘SIMLIK MOYLARI ASOSIDA FUNKSIONAL MAYONEZ MAHSULOTLARI OLISH VA ULARNING KOLLOID HAMDA REOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ QILISH

02.00.11-Kolloid va membrana kimyosi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘T 664.34:66.063.8

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Choriyeva Iqlima Yo‘ldosh qizi
Omixta o‘simlik moylari asosida funksional mayonez mahsulotlari olish va ularning kolloid hamda reologik xususiyatlarini tadqiq qilish…….. 3

Чориева Иқлима Йўлдош қизи
Производство функциональных майонезных продуктов на основе смесей растительных масел и изучение их коллоидных и реологических свойств... 21

Chorieva Iklima
Production of functional mayonnaise products based on blended vegetable oils and study of their colloidal and rheological properties…… 41

Эълон қилинган ишлар рўйҳати
Список опубликованных работ
List of published works……. 45

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

CHORIYEVA IQLIMA YO‘LDOSH QIZI

OMIXTA O‘SIMLIK MOYLARI ASOSIDA FUNKSIONAL MAYONEZ MAHSULOTLARI OLISH VA ULARNING KOLLOID HAMDA REOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ QILISH

02.00.11-Kolloid va membrana kimyosi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/T6655 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (ўзбек, рус, инглиз (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.//ionx.uz va «Ziyonet» axborot ta’limi portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Salixanova Dilnoza Saidakbarovna** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jumayeva Dilnoza Jurayevna** texnika fanlari doktori, professor
	Xodjayev Sarvar Faxreddinovich texnika fanari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning « 03 » dekabr 2026 yil soat 15-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77-a uy. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-76-90, e-mail: ionx@academy.uz.

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 26 -raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100107, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77-a uy. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-76-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “ 17 ” noyabr kuni tarqatildi.
(2026 yil “ 17 ” noyabr № 26- raqamli reestr bayonnomasi).

A.B. Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

B.Z. Adizov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

I.D. Eshmetov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholi sonining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin oshishi hamda sog‘lom ovqatlanish tamoyillarining keng joriy etilishi funksional oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirishni taqozo etmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yurak-qon tomir kasalliklari, metabolik sindrom va semirish kabi kasalliklarning ko‘payishi oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi yog‘ komponentlarining sifati va biologik qiymatini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu munosabat bilan tarkibida biologik faol moddalar, essensial yog‘ kislotalari va tabiiy antioksidantlar mavjud bo‘lgan funksional emulsion mahsulotlarni ishlab chiqish oziq-ovqat sanoatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘simlik moylari asosidagi emulsion tizimlarning barqarorligini oshirish, ularning mikrostrukturasi va reologik xususiyatlarini optimallashtirish, saqlash davomida sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish hamda mahsulotlarning iste’mol xususiyatlarini yaxshilash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda mayonez va shu turdagi emulsion mahsulotlar eng ko‘p iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari qatoriga kiradi. Biroq an’anaviy mayonezlar tarkibida asosan bir turdagi o‘simlik moylaridan foydalanilishi, biologik faol komponentlar miqdorining cheklanganligi hamda yog‘ kislotalari tarkibining har doim ham optimal nisbatda bo‘lmasligi ularning funksional xususiyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Shu sababli so‘nggi yillarda rivojlangan davlatlarda mayonez va emulsion mahsulotlar tarkibini takomillashtirish, turli o‘simlik moylari asosida muvozanatlashgan yog‘li kompozitsiyalar yaratish, emulsiyalarning kolloid-kimyoviy va reologik xususiyatlarini boshqarish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikada oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o‘zlashtirishvazifalari” [1] belgilab berilgan. Bu borada, O‘zbekiston hududida keng yetishtiriladigan kungaboqar, soya, zig‘ir va rayhon kabi o‘simliklar moylarining yog‘ kislotalari tarkibi va funksional imkoniyatlaridan kompleks foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-son “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PQ-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi 37-son “Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarori hamda, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog’liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Omixta o‘simlik moylari asosida funksional mayonez mahsulotlari olish va ularning kolloid hamda reologik xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha bir qancha xorijiy va respublika olimlari tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Ulardan Anna Florowska, L.Zhang, Z.Herceg, Adonis Hilal, Ali Maha, Mostafa Rehab, Raja Aravamuthan, Tomasz Florowski, C.F.Ognean, Biljana Pajin, Ivana Nikolić, A. Patel, H.Liu, Johannes Dreher, Maurice König, Kurt Herrmann, Jochen Weiss, Ye.Yu.Sorokina, A.P.Nechaev, V.V.Klyuchkin, N.S. Arutyunyan, Ye.P. Kornena, A.N. Lisitsin, Yu.K. Kadirov, A.A. Abduraximov, S.A. Abduraximov, D.S. Salihanova, I.B.Isabaev, A.T.Ruzibaev, va Sh.A. Salijonova, I.D. Eshmetov, A.B. Abdikamalova, D.J. Jumaeva ва boshqa olimlar tomonidan mayonezni yangi retsepturalarini ishlab chiqish, tarkibini yaxshilash, funksionalligini oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan.

Lekin bugungi kun tendensiyasidan kelib chiqib, nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini assortimentini kengaytirish, balki uni funksionalligini oshirish zarur. Bugungi kun talablarini inobatga olib, mayonezning asosiy moyli massa tarkibini kupajlash orqali uning funksionalligini oshirish dolzarb hisoblanadi.

Dissertasiya tadqiqotining bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘simlik moylari asosida ozuqaviy surkov emulsiyalarini olish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: mayonez mahsulotini biologik qiymatini oshirish uchun yog‘ kislota tarkibi maqbullashtirilgan omixta o‘simlik moyi kompozitsiyasini olish va undan olingan mayonezning fizik-kimyoviy va organoleptik tarkibiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

respublikada ishlab chiqariladigan o‘simlik moylarini fizik-kimyoviy tarkibini aniqlash;

kungaboqar, soya, zig‘ir va rayhon moylarining yog‘ kislotalari tarkibini aniqlash hamda ularning funksional mayonez ishlab chiqarishdagi qo‘llanish imkoniyatlarini baholash;

o‘rganilgan o‘simlik moylari asosida biologik va texnologik jihatdan maqbul bo‘lgan omixta moy kompozitsiyalarini shakllantirish va ularning fizik-kimyoviy, kolloid-kimyoviy hamda strukturaviy xususiyatlarini tadqiq etish;

tanlangan moy kompozitsiyalari asosida funksional mayonez namunalarini ishlab chiqish va ularning organoleptik hamda fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash;

mayonez emulsiyalarining barqarorligi, oksidlanish darajasi, kolloid va reologik xususiyatlarini baholash;

rotor-stator gomogenizator va ultratovushli ishlov berishning mayonez emulsiyalarining sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish;

omixta moylar asosida funksional mayonez ishlab chiqarishning optimal texnologik parametrlarini ishlab chiqish hamda taklif etilgan texnologiyaning texnologik va iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida rafinatsiyalangan soya, kungaboqar, zig‘ir, va rayxon o‘simlik moylari, nazorat uchun tayyor mayonez olingan.

Tadqiqotning predmeti kungaboqar, soya, zig‘ir va rayhon moylari hamda ular asosida shakllantirilgan omixta moy kompozitsiyalari, ushbu kompozitsiyalar asosida olingan mayonez emulsiyalari, ularning kolloid-kimyoviy, fizik-kimyoviy va reologik xususiyatlari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishida xomashyo va tayyor mahsulotlarning fizik-kimyoviy, biokimyoviy, mikrobiologik va toksikologik usullar, shuningdek, olingan natijalarni eksperiment uslubi yordamida mahsulot tarkibida reologik xususiyatlarini tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kungaboqar-zig‘ir-rayhon (80:15:5) va kungaboqar-soya-zig‘ir (60:25:15) nisbatlaridagi funksional omixta moy kompozitsiyalari ilmiy asoslanib, ularda to‘yinmagan yog‘ kislotalari miqdori mos ravishda 89,94% va 85,64% ni tashkil qilishi, K-1 kompozitsiyasida linolen kislotasi 12,41%, K-4 kompozitsiyasida α-linolen kislotasi 16,39% ga yetishi aniqlangan;

tanlangan K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida tarkibida 65,3 % yog‘ fazasi mavjud funksional mayonez ishlab chiqilib, ularning fizik-kimyoviy va kolloid xususiyatlari aniqlangan;

rotor-stator gomogenizatori va ultratovushli ishlovning mayonez emulsiyalarining kolloid hamda reologik xususiyatlariga ta’siri kompleks baholanib, rotor-stator gomogenizatsiyasi natijasida yog‘ tomchilari o‘lchami 8-15 mkm dan 2-5 mkm gacha kamayishi, emulsiya barqarorligi 92-94 % dan 97-99 % gacha oshishi, K-1 namunasi dinamik qovushqoqligi 5,8 Pa·s dan 7,4 Pa·s gacha (27,6 %), K-4 namunasida esa 5,5 Pa·s dan 7,0 Pa·s gacha (27,3 %) ortishi aniqlangan;

omixta o‘simlik moylari asosida yuqori emulsiya barqarorligiga ega funksional mayonez olishning optimal texnologik parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kungaboqar-zig‘ir-rayhon (80:15:5) kompozitsiyasi mayonez uchun yog‘li asos olish usuli ishlab chiqilgan;

kungaboqar-soya-zig‘ir (60:25:15) kompozitsiyasi mayonez uchun yog‘li asos olish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, olingan eksperimental natijalarning takrorlanuvchanligi, ularning statistik qayta ishlanganligi hamda adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan taqqoslanganligi bilan ta’minlanadi

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati mayonez mahsulotini biologik boyitish uchun respublikada ishlab chiqariladigan o‘simlik moylari (kungaboqar, zig‘ir, rayhon, soya) asosida yog‘ kislota tarkibi maqbullashtirilgan yog‘li asos olish, uni mayonezning fizik-kimyoviy va organoleptik xossalariga ta’sirini ilmiy asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati funksional xossalari yaxshilangan mayonez olish uchun yog‘li asos olish uchun respublikada ishlab chiqariladigan o‘simlik moylarini yog‘ kislota tarkibini o‘rgangan holda ω-6:ω-3 maqbullashtirilgan tarkibga ega yog‘li asos olish uchun, hamda shu sohadagi oliy ta’lim muassasalarida mutaxasislik fanlarini o‘qitilishida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Omixta o‘simlik moylari asosida funksional mayonez mahsulotlari olish va ularning kolloid hamda reologik xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘simlik moylaridan kungaboqar-zig‘ir-rayhon (80:15:5) kompozitsiyasi asosida biologik mayonez olish usuli «O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi» ning «2027-2028-yillar amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati»ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yog‘-moy sanoat korxonalari uyushmasining 2026-yil 10-sentyabrdagi 0.1-204-son ma’lumotnomasi). Natijada mayonez tarkibi yaxshilangan moyli asos olish imkonini beradi;

o‘simlik moylaridan kungaboqar-soya-zig‘ir (60:25:15) kompozitsiyasi asosida biologik mayonez olish usuli «O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi» ning «2027-2028 yillar amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati»ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yog‘-moy sanoat korxonalari uyushmasining 2026-yil 10-sentyabrdagi 0.1-204-son ma’lumotnomasi). Natijada mayonez tarkibi yaxshilangan moyli asos olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta Respublika ilmiy-texnik va 6 ta xalqaro ilmiy konferensiyada e’lon qilingan. Ular ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama qilinib, ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan: 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida; 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya mazmuni kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va talabning yuqoriligi asoslab berilgan**,** tadqiqotning maqsad va vazifalari bayon etilgan, tadqiqodning ob'ekti va predmeti tavsiflangan,O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyaning ustuvor yo'nalishlariga mosligi yoritilgan, ilmiy yangilik, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, olingan natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Omixta o'simlik moylari asosida funksional mayonez mahsulotlarini olishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida funksional mayonez mahsulotlari va ularni yaratishning zamonaviy tendensiyalari, mayonez emulsiyalarining hosil bo'lishi va barqarorligining kolloid-kimyoviy asoslari, omixta o'simlik moylarining tarkibi, biologik qiymati va funksional xususiyatlari, mayonez mahsulotlarining reologik xususiyatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar, adabiyotlar tahlili asosida tadqiqotning dolzarbligi, ilmiy muammolari va tadqiqot yo'nalishini asoslash bo'yicha zamonaviy adabiyotlar va patentlar tahlili o'tkazilgan. Olib borilgan tadqiqotlarning natijalarini yutuq va kamchiliklarini inobatga olib, tadqiqot ishi vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **"Funksional mayonez olish uchun kupajlangan yog' asosini olish uchun tadqiqot obyektlari va usullari"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uchun tanlab olingan obyektlarning tasnifi, mayonez tayyorlash usuli va texnologiyasi, fizik-kimyoviy tahlil usullari, o'simlik moylarining tahlil usullari, yog' kislotalarining tahlil usullari, farmokologik xavfsizligini aniqlash usullari batafsil yoritilgan.

Tadqiqot davomida kungaboqar, soya, zig'ir va rayhon moyi xomashyosidan olingan moylardan foydalanildi. Ushbu moylar alohida hamda turli nisbatlarda aralashtirilib, funksional va biologik faol komponentlarga boy omixta yog'li kompozitsiyalar hosil qilindi. Olingan kompozitsiyalar mayonez emulsiyalarini tayyorlashda yog' fazasi sifatida qo'llanildi.

1-jadval

O'simlik moylarining yog' kislotalari tarkibi

Yog' kislota nomi	Formula	Yog' kislotalari tarkibi,%			
		Kungaboqar moyi	Soya moyi	Zig'ir moyi	Rayhon moyi
Miristin	$C_{14}H_{28}O_2$	0,06	0,08	0,04	0,07
Miristolein	$C_{14}H_{26}O_2$	-	0,04	-	-
Palmitin	$C_{16}H_{32}O_2$	9,83	6,73	5,24	6,98
Palmitolein	$C_{16}H_{30}O_2$	0,07	0,06	0,06	-
Stearin	$C_{18}H_{36}O_2$	4,08	2,81	4,02	2,84
Olein	$C_{18}H_{34}O_2$	20,3	12,8	17,65	10,02
trans-linol	$C_{18}H_{32}O_2$	0	0,04	0	0,02
Linol	$C_{18}H_{32}O_2$	55,62	76,3	14,5	22,91
Araxin	$C_{20}H_{40}O_2$	-	-	0,12	0,17
Linolen + α -linolen	$C_{18}H_{30}O_2$	6,95	0,93	57,77	57,09
Gadolein	$C_{20}H_{38}O_2$	0,82	-	-	-
Boshqa		2,27	1,01	0,6	-
Umumiy miqdori		100	100	100	100

Funksional mayonez mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan yog‘li asosning tarkibi tayyor mahsulotning biologik qiymati, emulsiyalash qobiliyati, kolloid barqarorligi va reologik xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tadqiqotda yog‘ kislotalari tarkibi muvozanatlangan, yuqori biologik faollikka ega bo‘lgan omixta o‘simlik moylari kompozitsiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Omixta moylar kompozitsiyasini shakllantirish quyidagi usullar asosida amalga oshirildi: Dastlab barcha moylar mexanik aralashmalardan tozalangan va laboratoriya haroratida (20-25^{0}C) saqlangan holda ishlatildi. Har bir moy analitik tarozida belgilangan nisbatlarda tortib olindi. Komponentlar shisha idishlarda birlashtirilib, laboratoriya aralashtirgichi yordamida 10-15 daqiqa davomida 500-700 ayl/daq tezlikda aralashtirildi. Aralashtirish natijasida bir jinsli (gomogen) yog‘li kompozitsiyalar olindi.

Tadqiq etilgan moylarning yog‘ kislotalari tarkibida to‘yinmagan yog‘ kislotalari ustunlik qiladi. Kungaboqar moyida linol kislotasi 55,62%, soya moyida 76,30%, zig‘ir moyida linolen kislotalari 57,77%, rayhon moyida esa 57,09% ni tashkil etdi. Olein kislotasi miqdori mos ravishda 20,30; 12,80; 17,65 va 10,02% bo‘ldi. To‘yingan yog‘ kislotalaridan asosan palmitin va stearin kislotalari aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan o‘simlik moylari tarkibida to‘yinmagan, shu jumladan ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalarining yuqori miqdori bilan ajralib turadi, bu ularning yuqori biologik qiymatini va funksional oziq-ovqat mahsulotlarini yaratishda foydalanish imkoniyatlarini belgilaydi.

Dissertatsiyaning “**Omixta o‘simlik moylari asosida olingan mayonezlarning kolloid-kimyoviy xossalarini tadqiq etish”** deb nomlangan uchinchi bobida omixta moy kompozitsiyalarining optimal nisbatlarini asoslash va ularning kimyoviy tarkiblari, o‘simlik moylari hamda ular asosidagi kompozitsiyalarining IQ-spektroskopik tavsifi, tanlangan K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida mayonez namunalarini tayyorlash, omixta moy kompozitsiyalarining oksidlanish barqarorligini baholash, tanlangan kompozitsiyalar asosida tayyorlangan mayonez emulsiyalarining turg‘unligi va saqlash davridagi barqarorligini baholash, tanlangan kompozitsiyalar asosida tayyorlangan mayonezlarning farmakologik xususiyatlarini baholash, shuningdek, tanlangan kompozitsiyalar tarkibida mavjud bo‘lgan tokoferollar miqdorini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

2-jadval

Tadqiqot uchun tanlangan omixta moy kompozitsiyalari

Yog‘ kislota nomi	Formula	1-namuna, %	2-namuna, %
Palmitin	$C_{16}H_{32}O_2$	8,87	8,49
Stearin	$C_{18}H_{36}O_2$	3,38	3,82
Olein	$C_{18}H_{34}O_2$	21,88	22,70
Linol + Linolen	$C_{18}H_{32}O_2$ $C_{18}H_{30}O_2$	61,89	61,84
Eikosen	$C_{20}H_{38}O_2$	0,76	0,76

Soya va kungaboqar moyidan tayyorlangan kompozitsiyalar tahlil qilindi, bunda quyidagicha nisbatlarda olindi.

1-namuna: 20% soya moyi + 80% kungaboqar moyi

2-namuna: 30% soya moyi + 70% kungaboqar moyi

2-jadvalda tadqiq qilingan ikkala namunaning yog‘ kislotalari tarkibi o‘zaro juda yaqin ekanligi aniqlandi. Asosiy komponent linol va linolen kislotalari bo‘lib, uning miqdori 1-namunada 61,89%, 2-namunada esa 61,84% ni tashkil etdi. Ikkinchi asosiy yog‘ kislotasi olein kislotasi bo‘lib, uning ulushi mos ravishda 21,88% va 22,70% ni tashkil qildi. To‘yingan yog‘ kislotalaridan palmitin miqdori yuqoriroq 8,49-8,87% va stearin kislotalari 3,38-3,82% oralig‘ida qayd etildi. Eikosen kislotasi esa har ikkala namunada 0,76% miqdorda aniqlandi.

Tadqiqotlar davom ettirgan holda biz kungaboqar va soya moylarini 95:5 nisbatda yog‘ kislotalari tarkibini ham tahlil qildik, bunda quyidagicha natijalar olindi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Omixta moyning yog‘ kislotalari tarkibi

Yog‘ kislota nomi	Formula	Miqdori, %
Miristin	$C_{14}H_{28}O_2$	0,04
Miristolein	$C_{14}H_{26}O_2$	0
Palmitin	$C_{16}H_{32}O_2$	9,01
Palmitolein	$C_{16}H_{30}O_2$	0,09
Stearin	$C_{18}H_{36}O_2$	3.82
Olein	$C_{18}H_{34}O_2$	17,25
trans-linol	$C_{18}H_{32}O_2$	0
Linol	$C_{18}H_{32}O_2$	62,70
Araxin	$C_{20}H_{40}O_2$	0
Linolen + α -linolen	$C_{18}H_{30}O_2$	6,47
Gadolein	$C_{20}H_{38}O_2$	0,62
Umumiy miqdori		100

3-jadvalda olingan tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, 95:5 nisbatdagi kungaboqar va soya moylari kompozitsiyasi tarkibida asosiy yog‘ kislotasi linol kislotasi bo‘lib, uning miqdori 62,70% ni tashkil etdi. Shuningdek, olein kislotasi (17,25%), palmitin kislotasi (9,01%), linolen hamda α-linolen kislotasi (6,47%) va stearin kislotasi (3,82%) ham asosiy komponentlar sifatida aniqlandi. Gadolein kislotasi esa mos ravishda 0,62% miqdorda uchradi. Natijalar kompozitsiya tarkibida to‘yinmagan yog‘ kislotalari ustunlik qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, zig‘ir moyining o‘ziga xos kuchli ta’mi, rayhon moyining esa efir moylari va biologik faol komponentlarga boyligi mayonezning odatiy organoleptik xususiyatlarini o‘zgartiradi. Shu sababli ularning miqdori cheklangan holda qo‘llanadi: 1-namuna tarkibida zig‘ir moyi 15% va rayhon moyi 5%, 2-namuna tarkibida esa zig‘ir moyi 15% miqdorda tanlangan. Bunday nisbatlar mayonezni ω-3 va biologik faol komponentlar bilan boyitadi.

1-jadval keltirilgan natijalarga ko‘ra, kungaboqar moyi asosan linol kislotasiga (55,62%), soya moyi linol kislotasiga (76,30%), zig‘ir moyi α-linolen kislotasiga (57,58%), rayhon moyi esa linolen kislotasiga (56,79%) boy ekanligi aniqlandi. Mazkur natijalar asosida funksional mayonez mahsulotlari uchun ikki xil yog‘li kompozitsiya tanlandi.

Dastlabki uchta kompozitsiyalar tarkibiga kungaboqar, zig‘ir va rayhon moylari mos ravishda turli xil nisbatlarda kiritildi. Ushbu nisbatni tanlashda kungaboqar moyining yuqori texnologik xususiyatlari, zig‘ir moyining α-linolen kislotasiga boyligi hamda rayhon moyining tabiiy antioksidant va *ω*-3 yog‘ kislotalari manbai ekanligi hisobga olindi.

Keyingi uchta kompozitsiyalar esa kungaboqar, soya va zig‘ir moylaridan turli xil nisbatlarda shakllantirildi. Ushbu kompozitsiyada soya moyining linol kislotasi va biologik faol fosfolipidlarga boyligi, zig‘ir moyining ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalar manbai ekanligi hamda kungaboqar moyining emulsiyalash jarayonidagi texnologik afzalliklari asos qilib olindi.

4-jadval

Tadqiqot uchun tanlangan omixta moy kompozitsiyalari

Kompozitsiya	Kungaboqar moyi, %	Soya moyi, %	Zig‘ir moyi, %	Rayhon moyi, %
K-1	80	-	15	5
K-2	70	-	20	10
K-3	60	-	25	15
K-4	60	25	15	-
K-5	70	20	10	-
K-6	80	15	5	-

Tanlangan kompozitsiyalarning kimyoviy tarkibi yog‘ kislotalari tarkiblari tahlil qilindi. Turli xil kompozitsiyalarning yog‘ kislotalari tarkibi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Turli xil kompozitsiyalarning yog‘ kislotalari tarkibi

Yog‘ kislota nomi	K-1	K-2	K-3	K-4	K-5	K-6
Miristin	**0,05**	0,04	0.05	**0,11**	0,10	0,11
Palmitin	**5,98**	7,03	9,73	**8,47**	8,97	9,14
Palmitolein	**0,07**	0,08	0,07	**0,15**	0,16	0,15
Stearin	**3,46**	3,02	2,97	**4,05**	4,51	4,37
Olein	**17,23**	20,86	20,27	**18,51**	19,21	20,78
Linol	**50,68**	46,24	44,20	**49,63**	50,28	51,17
Araxin	**0,01**	0,01	0,01	**0,09**	0,09	0,09
Linolen + α-linolen	**21,85**	23,26	22,62	**16,81**	15,73	12,87
Gadolein	**0,09**	0,07	0,08	**0,54**	0,57	0,46
Boshqa	**0,57**			**1,73**	0,38	1,13
Umumiy miqdori	**100%**	100%	100%	**100%**	100%	100%

4-jadvalda keltirilganidek, tadqiqot uchun ikkita turdagi kompozitsion tizim shakllantirildi. Birinchi tizim kungaboqar-zig‘ir-rayhon moylari asosida (K-1, K-2, K-3), ikkinchi tizim esa kungaboqar-soya-zig‘ir moylari asosida (K-4, K-5, K-6) tayyorlandi. Har ikkala tizimda biologik faol komponentlar ulushi bosqichma-bosqich o‘zgartirilib, ularning yog‘ kislotalari tarkibiga ta’siri baholandi.

5-jadval natijalaridan ko‘rinadiki, K-1, K-2 va K-3 kompozitsiyalarida zig‘ir va rayhon moylari ulushining ortishi bilan linolen va α-linolen yog‘ kislotalarining umumiy miqdori mos ravishda 21,85; 23,26 va 22,62% larni tashkil etdi. Shu bilan birga, linol kislotasi miqdori 50,68% dan 44,20% gacha kamaygani kuzatildi. Bu holat zig‘ir va rayhon moylari ulushi ortishi natijasida ω-3 yog‘ kislotalari ulushining oshishi va yog‘ kislotalari nisbatining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalarining ortishi mahsulotning biologik qiymatini oshirishi bilan birga, oksidlanish jarayoniga moyillikni ham ma'lum darajada kuchaytirishi mumkin.

K-4, K-5 va K-6 kompozitsiyalarida esa soya moyi ulushi kamayishi bilan linolen va α-linolen yog‘ kislotalarining umumiy miqdori 16,81% dan 12,87% gacha pasaygani kuzatildi. Bunday o‘zgarish, asosan, zig‘ir moyi ulushining kamayishi hamda soya moyi tarkibidagi biologik faol komponentlar nisbatining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, soya moyi ulushining kamayishi fosfolipidlar va tabiiy tokoferollar miqdorining kamayishiga olib kelishi mumkin, bu esa emulsiya hosil bo‘lishi va uning kolloid barqarorligiga ma'lum darajada ta’sir ko‘rsatadi.


Yog‘ kislotalari tarkibini kompleks baholash natijasida K-1 kompozitsiyasi birinchi guruh ichida eng maqbul variant sifatida tanlandi. Mazkur kompozitsiyada linol kislotasi 50,68%, olein kislotasi 17,23% va linolen hamda α-linolen yog‘ kislotalarining umumiy miqdori 21,85% ni tashkil etdi. Ushbu tarkib ω-3, ω-6 va ω-9 yog‘ kislotalarining nisbatan muvozanatli nisbatini ta'minlab, mahsulotning biologik qiymatini oshirish bilan bir qatorda oksidlanish barqarorligini ham saqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, rayhon moyining 5% miqdorda qo‘llanilishi tabiiy antioksidantlar miqdorini oshirib, mahsulotning organoleptik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Ikkinchi guruhda esa K-4 kompozitsiyasi optimal deb topildi. Mazkur kompozitsiyada linol kislotasi 49,63%, olein kislotasi 18,51% hamda linolen va α-linolen yog‘ kislotalarining umumiy miqdori 16,81% ni tashkil etdi. Soya moyining 25% ulushda qo‘llanilishi fosfolipidlar, tokoferollar va boshqa biologik faol komponentlar hisobiga emulsifikatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, zig‘ir moyining 15% miqdorda qo‘llanilishi biologik qiymatni oshirish uchun yetarli bo‘lib, yog‘ tizimining oksidlanish barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, yog‘ kislotalari tarkibi, biologik qiymati va texnologik xususiyatlarining kompleks tahlili natijasida K-1 va K-4 funksional mayonez ishlab chiqarish uchun optimal yog‘ kompozitsiyalari sifatida tanlab olindi. Bu kompozitsiyalar yuqori biologik samaradorlik, muvozanatlashgan yog‘ kislotalari tarkibi hamda yuqori emulsiya barqarorligini ta’minlashi bilan boshqa kompozitsiyalardan ustunlik qildi. Shunday qilib, K-1 va K-4 kompozitsiyalari tarkibida biologik faol yog‘ kislotalarining optimal nisbati, to‘yinmagan yog‘

kislotalarning yuqori ulushi hamda texnologik jihatdan maqbul tarkib shakllanganligi aniqlandi. K-2, K-3, K-5 va K-6 kompozitsiyalarida ayrim biologik faol komponentlar miqdori yuqoriroq bo‘lsada, ularning ortishi yog‘ kislotalari muvozanatining buzilishi va oksidlanish barqarorligining pasayish xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli K-1 va K-4 kompozitsiyalari biologik qiymat, oksidlanish barqarorligi, emulsiya hosil qilish qobiliyati va texnologik xususiyatlar majmuasi bo‘yicha eng optimal kompozitsiyalar sifatida tanlandi hamda keyingi kolloid-kimyoviy, reologik va texnologik tadqiqotlar aynan ushbu kompozitsiyalar asosida olib borildi.

Turli xil o‘simlik moylari hamda ular asosida tayyorlangan omixta moy kompozitsiyalaridan olingan mayonez namunalari 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Turli xil o‘simlik moylaridan tayyorlangan mayonez namunalari


a) kungaboqar moyi asosida, b) soya moyi asosida, c) zig‘ir moyi asosida, d) rayhon moyi asosida, e) kungaboqar, zig‘ir va rayhon moylari asosida, f) kungaboqar, soya va zig‘ir moylari asosida

Tanlab olingan omixta moylar va ularning kompozitsiyalarining IQ-spektr tahlillari keltirilgan.


2-rasmdagi IQ spektr kungaboqar + soya + zig‘ir moylari aralashmasidan hosil bo‘lgan kompozitsion yog‘ning tipik triglitserid tabiatini ko‘rsatadi. Spektr uchala moyning umumiy lipid xususiyatlari yig‘indisi sifatida namoyon bo‘lgan.




Zig‘ir moyi spektri




Kungaboqar moyi spektri




Rayhon moyi spektri



Soya moyi spektri



K-1 kompozitsiyaning IQ spektr tahlili



K-4 kompozitsiyaning IQ spektr tahlili

2-rasm. O‘simlik moylari va ular asosidagi kompozitsiyalar IQ spektrlari

O‘simlik moylari va ular asosidagi K-1 va K-4 kompozitsiyalarining IQ-spektr tahlili tarkibidagi asosiy funksional guruhlarni tasdiqladi. Spektrlarda C–H, C=O va C=C bog‘lariga xos yutilish polosalari aniqlanib, moylarning asosiy tarkibiy qismi triglitseridlar va to‘yinmagan yog‘ kislotalaridan iborat ekanligini ko‘rsatdi. K-1 va K-4 kompozitsiyalarida kuzatilgan xarakterli polosalar dastlabki moylarga xos funksional guruhlar saqlanganligini tasdiqlaydi. Bu natijalar kompozitsiyalar tarkibida moy komponentlarining kimyoviy tuzilishi asosan saqlanib qolganligini ko‘rsatadi.

Yog‘ fazasi sifatida oldindan shakllantirilgan K-1 va K-4 moy kompozitsiyalaridan foydalanildi. Mayonez retsepturalari emulsiya barqarorligini ta’minlash, mahsulotning organoleptik ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda biologik

qiymatini oshirish mezonlari asosida tanlandi. 6-jadvalda K-1 va K-4 moy kompozitsiyalari asosida tayyorlangan mayonez retsepturalari keltirilgan.

6-jadval

K-1 va K4 kompozitsiyasi asosida tayyorlangan mayonez retsepturasi

Komponentlar		**Miqdori, %**
K-1 (kungaboqar : zig‘ir : rayhon = 80:15:5)	**K-4 (kungaboqar : soya : zig‘ir = 60:25:15)**	65,3
Tuxum sarig‘i		5,0
Sirka		3,0
Tuz		1,0
Shakar		0,5
Limon kislotasi		0,2
Suv		25,0
Jami		**100,0**

7-jadval

K-1 va K4 kompozitsiyalari asosida tayyorlangan mayonez namunalarining organoleptik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	**K-1 kompozitsiyasi tavsifi**	**K-4 kompozitsiyasi tavsifi**
Tashqi ko‘rinishi	Bir jinsli, qaymoqsimon emulsiya	Bir jinsli, qaymoqsimon konsistensiyali emulsiya
Konsistensiyasi	Quyuq, bir xil, fazalarga ajralmagan	Quyuq, bir xil, fazalarga ajralmagan
Rangi	Och-sariq, biroz yashilimtir tus bilan	Och-sariq, bir xil
Hidi	Rayhon moyiga xos yoqimli va mayin aromatli	Mayonez mahsulotiga xos, yoqimli o‘simlik moylari aromati bilan
Ta’mi	O‘ziga xos, yoqimli nordon, rayhon moyining yengil ta’mi seziladi	O‘ziga xos, yoqimli nordon, begona ta’mlarsiz
Kolloid holati	Barqaror, suyuq faza ajralishi kuzatilmadi	Barqaror, suyuq faza ajralishi kuzatilmadi

Tajriba namunalari uchun mayonez retsepturasi bir xil tarkibda shakllantirildi. Namunalar orasidagi asosiy farq yog‘ fazasining tarkibi bilan bog‘liq bo‘lib, K-1 namunada kungaboqar, zig‘ir va rayhon moylaridan iborat 80:15:5 nisbatdagi kompozitsiya, K-4 namunada esa kungaboqar, soya va zig‘ir moylaridan iborat 60:25:15 nisbatdagi kompozitsiya qo‘llanildi. Har ikkala retsepturada yog‘li kompozitsiya ulushi 65,3 %, tuxum sarig‘i 5 %, sirka 3 %, tuz 1 %, shakar 0,5 %, limon kislotasi 0,2 % va suv 25 % ni tashkil etadi. K-1 va K-4 kompozitsiyalar asosida tayyorlangan mayonezlarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tahlil natijalar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

8-jadval

K-1 hamda K4 kompozitsiyalari asosida tayyorlangan mayonez namunalarining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	O‘rtacha qiymat (M ± SD)	
		K-1	K-4
Zichlik	g/sm³	0,951 ± 0,003	0,948 ± 0,004
pH	–	4,12 ± 0,04	4,15 ± 0,05
Namlik	%	28,1 ± 0,5	28,4 ± 0,6
Peroksid soni	mmol O_2/kg	1,48 ± 0,07	1,62 ± 0,08
Yog‘ miqdori	%	65,2 ± 1,2	65,2 ± 1,3
Emulsiya barqarorligi	%	98,1 ± 0,2	97,6 ± 0,3

8-jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida tayyorlangan mayonez namunalari yuqori organoleptik hamda fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarga egaligi isbotlandi. Har ikkala namunada ham bir jinsli, qaymoqsimon konsistensiya hosil bo‘lib, emulsiya fazalarining ajralishi kuzatilmadi. Mahsulotlar och-sariq rangga ega bo‘lib, iste’mol talablari va mayonez mahsulotlari uchun belgilangan standart ko‘rsatkichlarga mos keldi.

Fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar tahlili K-1 va K-4 namunalari o‘rtasida katta farq mavjud emasligini ko‘rsatdi. K-4 namunasi uchun pH qiymati 4,12±0,04, K-4 namunasi uchun esa 4,15±0,05 ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar mayonez mahsulotlari uchun maqbul bo‘lib, mahsulotlarning mikrobiologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Emulsiya barqarorligi bo‘yicha K-1 namunasi biroz ustun natija ko‘rsatib, 98,1±0,2 % ni tashkil etdi, K-4 namunasida esa ushbu ko‘rsatkich 97,6±0,3 % ga teng bo‘ldi. K-1 namunasining yuqoriroq barqarorligi uning tarkibida rayhon moyining mavjudligi hamda moy kompozitsiyasidagi ω-3 va ω-6 yog‘ kislotalarining muvozanatlangan tarkibi bilan izohlanishi mumkin.

Umuman olganda, K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida tayyorlangan mayonez namunalari yuqori kolloid barqarorlik, maqbul fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar hamda yaxshi organoleptik xossalarga ega ekanligi aniqlandi. Biroq emulsiya barqarorligi va oksidlanishga chidamliligi bo‘yicha K-1 namunasi nisbatan ustun natijalarni namoyon etdi.

Mayonez mahsulotlarining sifatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri ularning turg‘unligi hisoblanadi. Emulsiya turg‘unligi yog‘ tomchilarining disperslik darajasi, emulsifikatorlarning faolligi hamda yog‘ fazasi tarkibiga bog‘liq bo‘lib, mahsulotning saqlanish muddati davomida o‘zining bir jinsliligini saqlab qolish qobiliyatini tavsiflaydi. Shu sababli tadqiqotda K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida tayyorlangan mayonez emulsiyalarining hosil bo‘lish jarayonidagi kolloid turg‘unligi hamda saqlash davridagi barqarorligi baholandi.

Dastlab mayonez emulsiyalarining hosil bo‘lish kinetikasi o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida emulsifikatsiya jarayonining dastlabki bosqichlarida emulsiya turg‘unligi tez sur’atlarda ortishi kuzatildi. Jarayonning 5-daqiqasida har ikkala namunada maksimal turg‘unlikka erishildi. Bunda K-1 va K-4 kompozitsiyalari uchun

emulsiya turg‘unligi 100% ni tashkil etdi. Jarayon davomiyligini 6 daqiqagacha uzaytirish esa turg‘unlikning biroz pasayishiga olib keldi. Bu holat tomchilararo qayta flokulyatsiya, adsorbsion qatlamning qisman buzilishi hamda tizim haroratining ortishi bilan izohlanadi.


9-jadval

Mayonez emulsiyalarining hosil bo‘lish jarayonida turg‘unlikning o‘zgarishi


Vaqt, min	K-1 (%)	K-4 (%)
1	74,5	72,8
2	86,7	84,9
3	93,8	91,5
4	98,2	97,1
5	**100,0**	**100,0**
6	99,2	98,8

9-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, emulsiya turg‘unligi gomogenizatsiya davomiyligi ortishi bilan 5-daqiqagacha muntazam ravishda oshib borgan va har ikkala kompozitsiyada maksimal qiymatga erishgan. K-1 va K-4 namunalari uchun 5-daqiqada emulsiya turg‘unligi 100% ni tashkil etib, tizimda yog‘ tomchilarining bir xil disperslanishi va emulgatorlarning tomchi yuzasida barqaror adsorbsion qatlam hosil qilganligini ko‘rsatdi.

Biroq gomogenizatsiya davomiyligini 6 daqiqagacha uzaytirish emulsiya turg‘unligining biroz pasayishiga olib keldi. K-1 namunada turg‘unlik 99,2%, K-4 namunada esa 98,8% ni tashkil etdi. Ushbu holat uzoq muddatli mexanik ta’sir natijasida ayrim mayda tomchilarning qayta birikishi (reflokulyatsiya) hamda tizim haroratining ortishi bilan izohlanishi mumkin.



3-rasm. Rotor-stator gomogenizatsiyasi davomida mayonez emulsiyasi turg‘unligining o‘zgarishi



4-rasm. Mayonezlarning turg‘unligining vaqtga bog‘liqligi grafigi


3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, gomogenizatsiya davomiyligini 6 daqiqagacha uzaytirish emulsiya turg‘unligining biroz pasayishiga olib keldi. Ushbu holat yog‘ tomchilari orasida qayta flokulyatsiya jarayonlarining kuchayishi, emulgatorlarning tomchi yuzasida qayta taqsimlanishi hamda adsorbsion qatlamning qisman buzilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, rotor-stator gomogenizatorning uzoq muddatli

ta’siri natijasida tizim haroratining ortishi dispers faza zarrachalarining agregatsiyalanish ehtimolini oshiradi. Natijada 5 daqiqada maksimal turg‘unlikka erishilgan bo‘lsa, 6 daqiqada emulsiya turg‘unligi K-1 namunasida 99,2%, K-4 namunasida esa 98,8% gacha kamaydi. Bu natijalar 5 daqiqalik gomogenizatsiya mayonez emulsiyasini hosil qilish uchun optimal texnologik rejim ekanligini ko‘rsatadi.

4-rasm natijalaridan ko‘rinib turibdiki, olingan natijalar K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida ishlab chiqilgan funksional mayonezlar saqlash davomida import funksional mayonez (nazorat)ga nisbatan yuqori emulsiya turg‘unligini saqlab qolishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, K-1 kompozitsiyasi eng past turg‘unlik yo‘qotilishi (2,2%) va eng yuqori yakuniy emulsiya barqarorligini (95,9%) namoyon etgani sababli, funksional mayonez ishlab chiqarish uchun eng maqbul yog‘ kompozitsiyasi sifatida tavsiya etiladi. Ushbu natijalar ishlab chiqilgan yog‘ kompozitsiyalarining texnologik afzalligi va saqlash jarayonidagi yuqori barqarorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Dissertatsiyaning “**Omixta moylar asosida mayonez olish jarayonlarini jadallashtirish usullari va texnologiyasi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobda mayonez olish jarayonini jadallashtirishda “Rotor-stator gomogenizer” ta’siri, omixta moylar asosida mayonez olish texnologiyasi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida rotor-stator gomogenizator qo‘llanilgan texnologiya mayonez emulsiyasining dispersligini oshirishi, emulsiya barqarorligini yaxshilashi hamda mahsulotning qovushoqlik ko‘rsatkichlarini optimallashtirishini ko‘rsatdi. Shu sababli taklif etilgan texnologiya omixta o‘simlik moylari asosida funksional mayonez ishlab chiqarish uchun samarali usul sifatida tavsiya etiladi.



5-rasm. Omihta moylari asosida mayonez olish texnologiyasi

K-1 va K-4 kompozitsiyalari iqtisodiy samaradorlik jihatidan import biologik faol moylar asosidagi mahsulotlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Xususan, K-1 kompozitsiyasining yog‘ fazasi narxi 30,75 ming so‘m/kg, K-4 kompozitsiyasiniki esa 28,75 ming so‘m/kg ni tashkil etib, mos ravishda zaytun (65,0 ming so‘m/kg), avokado (85,0 ming so‘m/kg) va chia (120,0 ming so‘m/kg) moylariga nisbatan 2-4 baravar arzon ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar ishlab chiqilgan yog‘li kompozitsiyalardan foydalangan holda funksional mayonez mahsulotlarining narxini sezilarli darajada pasaytirish salohiyatini namoyish etadi. Bundan tashqari, mahalliy o‘simlik xom ashyosidan foydalanish import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshiradi va mahalliy xom ashyodan oqilona foydalanishni rag‘batlantiradi.

XULOSALAR

1. Kungaboqar, soya, zig‘ir va rayhon moylarining yog‘ kislotalari tarkibi o‘rganilib, ular asosida biologik qiymati yuqori bo‘lgan funksional moy kompozitsiyalarini shakllantirish imkoniyati asoslandi.

2. Yog‘ kislotalari tarkibi asosida K-1 (kungaboqar:zig‘ir:rayhon – 80:15:5) va K-4 (kungaboqar:soya:zig‘ir–60:25:15) optimal kompozitsiyalari tanlandi. To‘yinmagan yog‘ kislotalari miqdori mos ravishda 89,94% va 85,64% ni tashkil etdi.

3. K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida 65,3% yog‘ fazali funksional mayonezlar olinib, ularning yuqori kolloid barqarorligi va maqbul fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlandi.

4. Rotor-stator gomogenizatsiyasi natijasida yog‘ tomchilari o‘lchami 8-15 mkm dan 2-5 mkm gacha, emulsiya barqarorligi esa 92-94% dan 97-99% gacha oshirildi, qovushqoqlik ham 27% dan ortiq ortdi.

5. Rotor-stator gomogenizatori ultratovushli ishlovga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlanib, funksional mayonez ishlab chiqarishning optimal texnologik usuli sifatida tavsiya etildi.

6. K-1 kompozitsiyasi rayhon moyidagi tabiiy antioksidantlar hisobiga yuqoriroq oksidlanish barqarorligini namoyon qildi, K-1 va K-4 asosidagi mayonezlarning o‘tkir toksik ta’sirga ega emasligi tasdiqlandi.

7. Olingan natijalar asosida K-1 va K-4 kompozitsiyalari asosida funksional mayonez ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilib, uni oziq-ovqat sanoatida qo‘llash tavsiya etildi. Texnologiyaning amaliy va iqtisodiy samaradorligi asoslandi.

РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

ЧОРИЕВА ИҚЛИМА ЙУЛДОШ КИЗИ

ПОЛУЧЕНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ МАЙОНЕЗНЫХ ПРОДУКТОВ НА ОСНОВЕ КУПАЖИРОВАННЫХ РАСТИТЕЛЬНЫХ МАСЕЛ И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ КОЛЛОИДНЫХ И РЕОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

02.00.11- Коллоидная и мембранная химия

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2026.2.PhD/T6655 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.ionx.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Салиханова Дилноза Саидакбаровна** доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Жумаева Дилноза Жураевна** доктор технических наук, профессор
	Ходжаев Сарвар Фахреддинович доктор технических наук, доцент
Ведущая организация:	**Ферганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится « 3 » декабря 2026 году в « 15-00 » часов на заседании разового Научного совета DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 при Институте общей и неорганической химии АН РУз. по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (+99871) 262-56-60; e-mail: ionxanruz@mail.ru

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии (указан под номером 26). (Адрес: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (99871) 262-56-60).

Автореферат диссертации разослан « 17 » ноября 2026 года
(реестр протокола рассылки №26 от « 17 » ноября 2026 года

А.Б. Ибрагимов
Председатель разового научного совета
по присуждению ученой степени, д.х.н., проф.

Б.З. Адизов
Учёный секретарь разового научного совета
по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

Н.Д. Эшметов
Председатель разового научного семинара
при разовом научном совете по присуждению
ученой степени, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире рост численности населения, резкое увеличение спроса на продовольственные товары, а также широкое внедрение принципов здорового питания обусловливают необходимость интенсификации научных исследований, направленных на создание функциональных пищевых продуктов. Согласно данным Всемирной организации здравоохранения, увеличение распространённости сердечно-сосудистых заболеваний, метаболического синдрома и ожирения обусловливает необходимость повышения качества и биологической ценности жировых компонентов пищевых продуктов. В этой связи разработка функциональных эмульсионных продуктов, содержащих биологически активные вещества, эссенциальные жирные кислоты и природные антиоксиданты, является одним из приоритетных направлений развития пищевой промышленности. Особую научно-практическую актуальность приобретают вопросы повышения устойчивости эмульсионных систем на основе растительных масел, оптимизации их микроструктуры и реологических свойств, сохранения качественных показателей в процессе хранения и улучшения потребительских свойств готовой продукции.

В мире майонез и другие аналогичные эмульсионные продукты относятся к числу наиболее широко потребляемых пищевых продуктов. Вместе с тем использование в составе традиционных майонезов преимущественно одного вида растительного масла, ограниченное содержание биологически активных компонентов, а также не всегда оптимальное соотношение жирных кислот ограничивают их функциональные свойства. В связи с этим в последние годы в развитых странах проводятся широкомасштабные научные исследования, направленные на совершенствование состава майонеза и эмульсионных продуктов, создание сбалансированных жировых композиций на основе различных растительных масел, а также управление коллоидно-химическими и реологическими свойствами эмульсионных систем.

В Республике достигнуты научные и практические результаты по модернизации пищевой промышленности, расширению производства импортозамещающей и экспортноориентированной продукции. В Стратегии развития Нового Узбекистана определены задачи по «выведению промышленности на качественно новый уровень, глубокой переработке местных источников сырья, ускорению производства готовой продукции и освоению новых видов продукции и технологий» [1]. В связи с этим, комплексное использование жирнокислотного состава и функционального потенциала масел таких, широко выращиваемых на территории Узбекистана растений, как подсолнечник, соя, лён и базилик, имеет важное научное и практическое значение.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализацией задач, указанных Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»,

[1] Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

постановлением от 6 июля 2022 года № ПП-307 «Об организационных мерах по реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», постановлением от 9 сентября 2020 года № ПП-4821 «О мерах по ускоренному развитию пищевой промышленности республики и полноценному обеспечению населения качественными продуктами питания» и от 23 октября 2019 года № ПП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы», а также постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 января 2022 года № 37 «О дальнейшей поддержке производителей пищевой продукции в республике» и другими нормативно-правовыми документами, регулирующими данную сферу деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. По вопросам получения функциональных майонезных продуктов на основе купажированных растительных масел и исследования их коллоидных и реологических свойств научно-исследовательские работы проводятся рядом зарубежных и отечественных учёных. В частности, исследования в данном направлении проводили Anna Florowska, L. Zhang, Z. Herceg, Adonis Hilal, Ali Maha, Mostafa Rehab, Raja Aravamuthan, Tomasz Florowski, C. F. Ognean, Biljana Pajin, Ivana Nikolić, A. Patel, H. Liu, Johannes Dreher, Maurice König, Kurt Herrmann, Jochen Weiss, Е.Ю. Сорокина, А.П. Нечаев, В.В. Ключкин, Н.С. Арутюнян, Е.П. Корнена, А.Н. Лисицын, Ю.К. Кадыров, А.А. Абдурахимов, С.А. Абдурахимов, Д.С. Салиханова, И.Б. Исабаев, А.Т. Рузибаев, Ш.А. Салижанова, И.Д. Эшметов, А.Б. Абдикамалова, Д.Ж., Жумаева и другие учёные. Ими выполнены научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых рецептур майонеза, совершенствование его состава, повышение функциональных свойств, а также улучшение коллоидно-химических и структурно-реологических характеристик эмульсионных пищевых систем.

